

TIBBIYOT YO'NALISHIDAGI AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLAR

Rustamov Dilshod Akbarovich

Toshkent shahri, Yashnabod tumani Toshkent Davlat Stomatologiya
Instituti akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchisi

Muxamedov Jamoliddin Isroil o'g'li

Toshkent shahri, Yashnabod tumani

Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti akademik litsey
2-kurs 4-21 guruh o'quvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalarini ta'lim jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan jahon chet tili o'qitish amaliyotida keng foydalanilmoqda. Faol o'qitish usullarining hammasi xam interaktiv usullariga kirmaydi. Interaktiv o'qitish usullari deganimizda, avvalo, o'quvchilar orasida mavzuni o'rganish va o'zlashtirish usuli o'zaro muloqotga asoslanadi. Mazkur maqolada ingliz tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili o'qitish, interaktiv o'qitish, interfaol metodlar

Abstract: Today, innovative pedagogical technologies are considered as the most effective tools in the educational process. They are widely used in world foreign language teaching practice. Not all active learning methods are interactive. When we say interactive teaching methods, firstly, the method of learning and mastering the subject among students is based on interaction. This article discusses the use of interactive methods in English language classes.

Keywords: English language teaching, interactive teaching, interactive methods
Ma'lumki, chet tilini o'qitish metodikasida olib borilgan tadqiqotlarda interfaol metodlar an'anaviy metodlarga nisbatan samaradorlik darajasi ko'proq ekanligi isbotlangan. Ingliz tili darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etilganda o'quvchilar mustaqil holda erkin fikr yuritadi, ta'lim o'quvchi-o'qituvchi, va o'quvchi-o'quvchi hamkorligida olib boriladi. Interfaol eng faol ta'lim usuli bo'lib, o'quvchilarga tez muddatda samarali ta'sir etish, mustaqil fikr yuritish, o'z ustida ishlash, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik kabi bilim, ko'nikma va malakalarni



shakllantirishni ta'minlaydi. Interfaol dars o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi.

Interfaol atamasi ingliz tilidagi "interactive", "interact", ya'ni, inter - bu "o'zaro", "akt" - harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini bildiradi. Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishining faolligi, ya'ni, o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi (sub'yekt-sub'yekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - ta'lim jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bu jarayonda birona ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. O'quvchilarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi va o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi.

Interfaol metodlarni ingliz tili darslarini samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy baxs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar:

- ingliz tili fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning qiziqishini ko'tarish;
- ingliz tilida o'qituvchi faoliyatini hayot real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- samarali kommunikatsiya usullari, ya'ni o'qituvchi-o'quvchi va o'zaro, muloqot ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish;
- yangi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini yangi darajaga ko'tarish;
- ta'lim olish jarayoniga o'quvchilarning ma'suliyatini oshirish.

O'qitishning interfaol usullari, tushuntirish, ko'rsatmali va vositalardan foydalanish kabi an'anaviy usullardan uning samaradorligi yuqori bo'lib, u talabalarni shaxs sifatida shakllanishi, xususiy qobiliyatlarini oshirish, ijodiy mustaqilligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Interfaol ta'lim va an'anaviy ta'lim bir-biridan farq qiladi:



1. O'quv rejadagi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

O'quvchilarda tinglash, gapirish, yozish va o'qish kabi nutq ko'nikmalarini interfaol metodlar orqali shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, harakatli kommunikativ muhitda dars jarayonida o'quvchilarni til o'rganishga jalb qilish, o'quvchilarni ingliz tilini maqsadli ishlatishga yo'naltirish va tabiiy nutqni rag'batlantirish muhim hisoblanadi. Quyida ingliz tili darslarida o'quvchilar o'rtasida interfaollikni ta'minlashga mo'ljallangan ayrim metodlar haqida qisqa ma'lumotlar keltiramiz:

KWL - bilardim, bilishni hohlayman, bilaman.

What I knew What I want to know What I learned

Xorijiy tillarni o'qitishda mazkur grafik organizerdan keng qo'llaniladi. O'tilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning dars avvalidan nimani bilishlari va nimani bilishni hohlashlarini 1 va 2 ustunlarni to'ldirish orqali aniqlab olish maqsadida foydalanish mumkin. Dars so'ngida o'quvchilar tomonidan 3- ustun to'ldiriladi.

PPP - taqdimot, amaliyot va ishlab chiqarish

Mazkur metod o'quvchilarga yangi mavzu bilan tanishishga imkon beradi. O'qituvchi tomonidan taqdim etilgan mavzuga oid topshiriqlarni bajarib, keyingi bosqishda o'quvchilar o'zlari ssenariylar yaratish kabi ijodiy tarzda ingliz tilidan foydalanadilar.

ESA - Engage, Study and Activate (Mashg'ul qilish, o'rganish va faollashtirish) o'quvchilar juft bo'lib va guruhlarda ishlash orqali ingliz tilida og'zaki muloqot qilish ko'nikmalarini oshirishga qaratiladi. Misol uchun, o'quvchilarga juftlikda ishlash uchun tugallanmagan jumlani o'zaro kelishib kerakli so'zlar bilan davom ettirish taklif etiladi. Mazkur jarayonda ingliz tilida mustaqil fikr yuritish, o'ziga bo'lgan ishonch, muloqot ko'nikmalari rivojlanadi.

Case Study - taklif etilgan mavzu bo'yicha ma'lumot to'plashni o'z ichiga oladi. Har bir ishtirokchi savol-topshiriqlar ro'yxati bilan tanishadi. O'qituvchi savol va



javoblarni shakllantirishga yordam beradi, o'zaro muloqot ingliz tilida olib borilishi ta'minlanadi.

Logical sequence method - mantiqiy ketma-ketlik metodiga ko'ra, o'quvchilar avval dialoglarni tinglashlari, keyin matnni o'qib, so'ngra ingliz tilidagi qisqa videoni tomosha qiladilar va amalda qo'llash kabi ko'nikmlarni rivojlantiradilar.

Role-play - rolly o'yin bir vaqtning o'zida nutq, o'yin va ta'lim faoliyatini amalga oshiradi. O'quvchilar turli xil rollarni ingliz tilida ijro etadilar. Rolli o'yinning maqsadi o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Rolli o'yinlari shaxslararo munosabatlarga asoslanganligi sababli, u umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi muloqotga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi, chet tilida ishtirok etishga qiziqish uyg'otadi. Motivatsion va rag'batlantiruvchi funktsiyani bajaradi va turli xil nutqiy vaziyatlarda o'quvchilarning muloqotini taqlid qilishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, dars samaradorlini ta'minlashni maqsad qilib olgan o'qituvchi interfaol dars usullaridan o'z o'rnida mohirona foydalansagina o'z maqsadiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harmer, J. (1998). How to teach English: An introduction to the practice of English language teaching. Edinburgh Gate, Harlow, England.
2. J. C. Richards and S.R.Rodgers. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.

